

# **MAYZU:**

O'zini o'zi boshqarish  
organlarida ijtimoiy hayot:  
muammolar va yechimlar

# REJA:

1. **Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslari**
2. **O'zbekistonda o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy institut sifatidagi o'ziga xos jihatlari**
3. **O'zini-o'zi boshqarish organlari ijtimoiy faolligini oshirish muammolari va kelgusi istiqbollari**
4. **O'zini-o'zi boshqarish organlarining tarbiya maskani sifatidagi nufuzini yanada oshirish muammolari va yechimlari**
5. **O'zini-o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi o'rni**

## Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslari

**Mamlakatimizda qadam-baqadam ildam borilayotgan “kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” g’oyasining amaliy ifodasini topishida fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari – mahallalarga e’tiborning yuksalishi muhim ahamiyatga egadir. Bu boradagi amaliy qadamlar hukumatimiz tomonidan dadil qadam tashlanmoqda. Hozirgi zamon jahon davlatchiligi tajribasida davlat zimmasidagi vazifalar ancha o’zgardi. Jumladan, endi u ko’proq iqtisodiy asoslarni mustahkamlash, ijtimoiy munosabatlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning madaniy va moddiy turmush darajasini oshirishning strategik tamoyillarini ishlab chiqish, mamlakat xavfsizligini ta’minlash, tinchligini mustahkamlash va xalqaro munosabatlarni rivojlantirish bilan shug’ullanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarni hal etishda o’zini-o’zi boshqarish organlari - mahallaning kuchli tomonlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, qadim davrlardan buyon mahalla o’zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o’rin egallab kelganligi sir emas.**

- Aholining axloqiy, ma'naviy turmush jabhalaridan iqtisodiy hayot sohalarigacha ta'sir doirasiga ko'ra hech qaysi siyosiy institut o'zini-o'zi boshqarish organlari – mahallalarning o'rnini bosa olmaydi. Ayniqsa, mahallaning hozirgi kunda davlatimiz rahbari olg'a surayotgan barkamol, ma'naviy etuk yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni nihoyatda katta ekanligini e'tirof etish lozim. Xususan, Prezident I.A.Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” asarida mahalla haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “...Xalqimizga xos o'zini-o'zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz “Mahalla – ham ota, ham ona” degan hikmatni talqini ona shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz”.

- Mahalla – ming yillar davomida insoniyat tomonidan e'tirof etilgan sharqona demokratiyaning asosiy tamoyillariga va jamoa fikriga asoslangan, o'zbek xalqining an'anaviy urf-odatlarini, tarixiy-milliy davlat boshqaruv madaniyatini va xalqning jamiyatni boshqaruv madaniyati va tizimini aholiga singdirish uchun xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmadir. Mustaqil mamlakatimizda qurilayotgan demokratik jamiyatda mahalla fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishning milliy modeli bevosita demokratiya instituti sifatida tan olindi. Uning qonuniy huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105 moddasida qat'iy belgilab qo'yildi. Unda shunday deyiladi “Shaharcha, qishloq va ovullarda shuningdek, uning tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi”.

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 10 yilligiga bag'ishlangan yig'ilishda yurtboshimiz I.A.Karimov "Har qaysi inson, har qaysi xonadon hayotida davlat va jamiyat boshqaruvida odamlarning boshini qovushtirish, turar joylarda tartib intizomni mustahkamlashda o'zini-o'zi boshqarish tizimini joriy qilishda mahallaning roli va ahamiyati mohiyati kundankunga oshib borayotganini barchamiz ko'rib turibmiz. Shu bois, mahallaning hayotimizdagi mavqei yuksak, uning qonuniy, huquqiy asoslari har tomonlama mustahkam bo'lib, rivoj topsa, bu idorani jamiyatimizning ajralmas bir qismi, quyi boshqarish tizimi sifatida nechog'lik kuchaytirsak, buning uchun barcha moddiy-ma'naviy sharoitlarni tashkil qilib borsak, o'ylaymanki bu o'z oldimizga qo'ygan asosiy maqsadlarga erishish yo'lida katta qadam bo'ladi", - deb ta'kidlaydi.

## O'zbekistonda o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy institut sifatidagi o'ziga xos jihatlari

- Mahalla – O'zbekistonda kishilar ijtimoiy hayotining asrlar davomida shakllangan o'ziga xos ko'rinishidir. Bu o'zaro qo'llab-quvvatlashning tengi yo'q ijtimoiy tashkilotidir. O'zini-o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli mahalla azaldan mavjud bo'lib kelgan. O'zbekistonda mahalla bundan 3-3,5 ming yillar avval odamlarning jamoa bo'lib, uyushib yashashlari, sharoitida shakllana boshladi. Bu haqda Sopoli tepadagi arxeologik qazilmalar Jarqo'ton yodgorliklari va tarixchi olim Narshaxiyning "Buxoro tarixi" nomli asari guvohlik beradi. Qadim-qadimdan mahalla jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy an'analar va odatlarni asrash, turmushdagi ko'pgina dolzarb masalalarni hal etish markazi bo'lib kelgan. Mahalla tarixiy jihatdan ham zamonaviy ma'noda ham bir joyda yashaydigan hamda umumiy ehtiyojlari bilan o'zaro bog'liq odamlarning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy mushtarakligi asosida tarkib topgan jamoadir. Aynan mahallada aksar hollarda siyosat va iqtisodiyotning, davlat hayoti va madaniy turmushning dolzarb masalalariga doir umumiy fikr shakllanadi, odamlarning jamiyatdagi hulq-atvori qoidalari belgilanadi.

- Mahallalarning qadimiy mahalliy boshqaruv tizimi ekanligini Toshkent shahri misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. XVIII asrda Toshkent shahrida to'rtta Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor, Shayhontahur daxalari bo'lgan. Har bir daxaga ko'pgina mahallalar qaragan. Xalq tomonidan saylangan yuzboshi va mingboshilar mahallalar faoliyatining boshida turishgan, ya'ni mahalliy xokimiyat vakillari sifatida ish yuritishgan. Shuni aytish joizki, vaqt o'tishi bilan mahallalar soni o'zgarib borgan. Masalan, 1865 yilda Toshkentda 140 ming kishi yashagan. XIX asrning oxiriga kelib savdo-sotiq, ishlab chiqarish rivojlanishi tufayli mahallalar soni 200 taga yetgan. XX asr boshlarida 260 ta mahalla bo'lgan. Hozirgi paytda Toshkentda 445 tadan ziyod mahalla bor. Mahallalar katta-kichikligi, aholining soni bilan farqlangan. Mahallalar asosan 100 dan to 400 gacha va hatto undan ham ko'p xonadondan iborat bo'lgan. Har bir mahalla obodonlashtirilgan va o'z ichiga masjid, choyxona, maktab, do'konlarni, kosibchilik ustaxonalarini olgan xududiy markazi mavjud bo'lgan. Guzarlar katta ko'chalarda yoki ko'chalar tutashgan gavjum chorrahalarda joylashgan. Umuman olganda mahalla aholisi o'zi yashayotgan joyning tabiati va xususiyatiga qarab, ko'proq hunarmandchilik, savdo-sotiq yoki qishloq xo'jalik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Boy tarixiy an'analarga ega bo'lgan yirik mahallalar sifatida Oqtapa, Oqmachit, Balandmachit, Devonbegi, Ko'kcha, Olmazor, Isfara guzari, Oltintepa, Agaobod, Samarqand darvoza, Kamolon, CHuqur ko'prik, O'qchi, O'zbek va boshqa mahallalarni keltirish mumkin.

- Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 10 yilligi munosabati bilan so'zlagan ma'ruzasida qilgan taklifiga muvofiq 2003 yil "Obod mahalla yili" deb e'lon qilgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2003 yil 7 fevralda qabul qilingan "Obod mahalla yili" davlat dasturida quyidagicha ishlar amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlangan edi:
- Mahalla faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- Mahallaning moddiy bazani rivojlantirish va mustahkamlash;
- Mahallalarda tadbirkorlikni xizmat ko'rsatish va savdoni, kichik biznes sohasini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini barpo etish;
- Mahallaning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, xududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, bolalar va sport maydonlarini jihozlash, yo'llar, ko'chalar va kommunal tarmoqlarini yaroqli holatda saqlanishini ta'minlash;
- Mahalla tomonidan kam ta'minlangan oilalarga aniq yo'nalishli moddiy yordam ko'rsatish va yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash;
- Keksa avlod vakillariga e'tibor va g'amho'rlikni kuchaytirish;
- Mahallalar aholisiga tibbiy va sanatoriy-kurort xizmati ko'rsatishni yaxshilash, bolalar sportini rivojlantirish.

## O'zini-o'zi boshqarish organlari ijtimoiy faolligini oshirish muammolari va kelgusi istiqbollari

- Mahallalar o'z kelib chiqishi jihatidan davlatdan ham oldin qaror topgan, degan ilmiy farazlar ham bor, biroq ular hali ilmiy izlanish va o'rganishga muhtoj. Mahalla aholini ahil-totuv yashashga, sidqidildan mehnat qilishga, kasb o'rganishga, shular orqali hayot kechirishga chaqiradigan noyob tuzilma, aholiga eng yaqin, qulay va ma'qul bo'lgan sevimli maskan, tarbiya o'chog'idir. Respublikamizda hozirda jami 9627 ta fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ularning 114 tasi shaharchalarda, 1339 tasi qishloqlarda, 131 tasi ovullarda, 2219 tasi shaharlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlaridan 6865 tasi yuridik maqomini olgan, ularning 6289 nafari oylik maosh bilan ta'minlangan.

- Hozir respublikamizda 62 ta oliy va 200 dan ziyod o'rta maxsus ta'lim muassasalarida 519175 nafar yigit-qizlar ta'lim olishmoqdalar. Bundan tashqari 9 mingdan ziyod umumta'lim o'rta maktablari, 6742 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida 6850 ming nafardan ziyod bolalar ta'lim-tarbiya olishmoqda, qanchadan-qancha yoshlar o'qishni bitirib ishsiz yurishmoqda. Mahallaning bu boradagi vazifalari "Mahalla, maktab, oila" kontseptsiyasida sanab o'tilgan.

# O'zini-o'zi boshqarish organlarining tarbiya maskani sifatidagi nufuzini yanada oshirish muammolari va yechimlari

Milliy istiqlol g'oyasi, o'z mazmun mohiyatiga ko'ra, bag'rikeng xalqimizning asosiy maqsad-muddoalarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini o'zaro bog'laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirish yo'lida xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir. Bu g'oya, shubhasiz, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi, xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, o'lmas merosdan oziqlanadi.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o'rni beqiyos. Yurtboshimiz ta'kidlaydilarki, o'zining yorug' kelajagini ko'rmoqchi va qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat, jamiyat albatta o'z milliy g'oyasiga, milliy mafkurasiga suyanishi va tayanishi joiz. Davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat avvalo aniq-ravshan ifodalangan, tarixdan qaror topgan milliy mafkura asosiga qurilmog'i lozim. Davlatimiz rahbarining milliy mafkuramizni rivojlantirish va xalqimiz ongiga singdirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy ko'rsatmalariga tayangan holda o'zimiz tanlagan xalqimiz irodasiga monand mustaqil taraqqiyot yo'lida aniq marralarni ko'zlab yashashimiz, pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod vatan, erkin va faravon hayot qurish yo'lida dadil, fidokorona harakat qilishimiz ham qarz, ham farz. Bunda biz uchun ruxiy-amaliy, ma'naviy, kuch-quvvat manbai, ilmiy asoslangan milliy g'oya, milliy mafkuradir.

Prezident milliy istiqloq mafkurasi masalasini o'rtaga tashlar ekan, komillikka, go'zallikka, poklikka chaqirayapti va butun jamiyatni 26 millionlik oilamizning har bir a'zosini ana shunday katta maqsad va g'oya bilan yashashga da'vat qilayapti. Shunday keng miqyosdagi tarbiyaviy, ahamiyatga molik bo'lgan mahallada shakllanadigan mafkuragina yashovchi bo'la oladi. Chunki, mafkuraning ilmiy asoslari, nazariy qo'llanmalari ijodiy laboratoriyalarda, tadqiqot muassasalarida yaratilishi mumkin. Biz hayot nuqtai-nazaridan, necha ming yillik tariximiz jarayonida shakllangan dunyoqarashlar nuqtai-nazaridan o'z hayotimizni, orzu-umidlarimizni tartibga solmasak, milliy mafkura havoda muallaq bo'lib qolaveradi. Jamiyatning eng birinchi boshlang'ich bo'g'ini, inson kundalik ehtiyojlariga daxldor bo'lgan ostonangdan chiqib, dilingni ochadigan mahalla bo'lganidan keyin, demak bizning butun taqdirimiz, hayotimiz ana shu joydagina hal etiladi va mahalla degan muqaddas bir go'shaning taqdiri bilan bog'liq bo'ladi. Mahalliy jamoalarning umumdavlat ahamiyatiga ega ekanligini esdan chiqarib bo'lmaydi. Aynan mahalliy jamoalar insonni tabiiy ravishda davlat bilan bog'lab turuvchi, jamoatchilik manfaatlari va irodasini o'zida mujassam etuvchi tuzilmalar tarmog'idir. Bu siyosiy hatti-harakatlar amalda qo'llab-quvvatlanadigan yoki rad etiladigan ijtimoiy makondir. Bu makon fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishdan tashqari hayot darsxonasi sifatidagi vazifani ham bajaradi. U katta-yu kichik o'z idrokiga yarasha tarbiya oladigan maktabdir. Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1994 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, maktab" hamkorligi kontseptsiyasida yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalash uchun keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida muhim dasturul amal bo'ldi.

## O'zini-o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi o'rni

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat hayotida jiddiy o'zgarishlar, tub yangilanishlar yuz berdi. Siyosiy munosabatlarda yangicha tafakkur tarzi shakllanm'qda, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida fuqarolarning real ishtirokini ta'minlash va uning kafolatli tizimini yaratish mamlakatda 'lib b'rilayotgan keng qamrovli islohotlarning negizini tashkil etmoqda.

Prezident Islom Karimov «Bugungi kunda ijtimoiy hayot sohasidagi salbiy holatlarni bartaraf etib, odamlar turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholining himoyaga muxtoj qatlam va guruhlarini ijtimoiy muhofazasini ta'minlagan holda, O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va fuqarolar totuvligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldik», deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, O'zbekistonda o'tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat tizimi shakllantirildi va hozirda uni amaliyotga kengroq tadbiq qilish, takomillashtirish muhim masalalardan bo'lib qolayotir.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyalashning asossiz tekischilik tizimidan voz kechilib, Sharqda necha ming yillar davomida qaror topgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, turmush tarzi va dunyoqarashiga muvofiq keladigan o'ziga xos yo'li tanlab olindi va aholini ijtimoiy himoyalashga yangicha munosabat shakllantirila boshlandi. Ijtimoiy ko'mak berishning mutlaqo yangicha ilg'or tizimi shakllantirildi. Bu ijtimoiy islohotlarning muhim jihatlaridan biri. Demak, bu ham ijtimoiy sohaning o'ziga xos **«o'zbek modeli»**dir va bu haqda so'z yuritish uchun asoslar yetarli.

O'zbekistonda mahalla o'zini-o'zi boshqarishdek ijtimoiy tuzilma sifatida azaldan mavjud bo'lgan va hamon saqlanib kelyapti. O'zbek millati uchun mahalla jamoa tushunchasidan ham muhimroq ma'noga ega. Mahalla tufayli aholining ijtimoiy qadriyatlari, o'zaro munosabat tizimi, odob-axloq tamoyillarining alohida qoidalari saqlanib qoldi-ki, bu shaxsning o'z zimmasidagi mas'uliyatni his qilishi va jamiyat oldidagi majburiyatini so'zsiz bajarishning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Ma'naviyat 2008 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. // T. "O'zbekiston" 2010y.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. T. "O'zbekiston" 1998y.
4. Saidov A. Mahalla va o'zini o'zi boshqarish organlari: erkinlashtirish va zamonaviylashtirish.
5. Demokratlashtirish va inson huquqlari. T. "O'zbekiston" 2001y.
6. Jalilov Sh. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. T. "O'zbekiston". 2001 y.
7. Demokratiya maktabi kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari. // Xalq so'zi. 2003y. 6 noyabr.
8. Ollamov Ya. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi mustaqil huquq sohasi sifatida. // Ilm sarchashmalari. 2003y. 3 son.
9. G'afforov N. Jamiyat mahalla – oila birligi muammolarini echishning ta'sirchan usuli. // Markaziy Osiyo madaniyati. 2003 y. 43-46 sonlar.
10. G'ulomov M. Mo'minov S. O'zini-o'zi boshqarish organlariga saylovlar: ular qanday o'tkaziladi? // O'zbekiston ovozi. 2003 y. 4 noyabr.
11. Qirg'izboev . Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari yoki o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni va mavqeini yuksaltirish haqida. // O'zbekiston ovozi. 2003y. 24 iyun.
12. Zulfiqorov A. Mahalla va yoshlar tarbiyasi. // Fidokor. 2003 y. 25 fevral.
13. Orifxonova Z. Mahalla tizimida qarindosh oilalarning o'zaro munosabatlari. // O'zbekiston tarixi. 2003 y. 3 son.
14. Ollamov Ya. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. // Ilm sarchashmalari. 2003y. 1 son.
15. Ollamov Ya. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida oshkoralik printsiipi. // Ilm sarchashmalari. 2004y. 4 son.
16. Ollamov Ya. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish – xalq xokimiyatchiligining shakli sifatida. // Ilm sarchashmalari. 2004y. 2 son.

ETIBORINGZUCHUN

RAWMAT!

TAMOM